



THE JADID MOVEMENT: THE FORMATION OF LEGAL AND DEMOCRATIC IDEAS AND THEIR HISTORICAL SIGNIFICANCE

Farmon Hayotov

Lecturer at the Department of Social and Humanitarian Sciences

Asia International University

e-mail: Farmon707icloud.com@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Jadidism, law, democracy, human rights, rule of law, freedom, enlightenment, equality, Turkestan, civil society.

Received: 05.09.26

Accepted: 06.09.26

Published: 07.09.26

Abstract: This article examines the emergence of the Jadid movement, which developed in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, its main goals and ideas, as well as the legal and democratic views of the Jadids. The article analyzes the Jadids' views on enlightenment, education, freedom of speech and thought, human dignity, equality, justice, and the rule of law. It also examines the views of such representatives of the Jadid movement as Mahmudkhoja Behbudi, Abdulla Avloni, Abdurauf Fitrat, and Munavvarkori Abdurashidkhanov on society and state governance. Particular attention is paid to the historical significance of the Jadid movement in the development of educational, socio-political, and legal thought in Turkestan and to the substantive connections between certain Jadid ideas and contemporary legal and democratic values.

JADIDLAR HARA-KATI: HUQUQIY-DEMOKRATIK G'OYALARNING SHAKLLANISHI VA TARIXIY AHAMIYATI

Farmon Hayotov

Osiyo Xalqaro Universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

e-mail: Farmon707icloud.com@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: jadidchilik, huquq, demokratiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, erkinlik, maʼrifat, tenglik, Turkiston, fuqarolik jamiyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning asosiy maqsad va gʻoyalari hamda jadidlarning huquqiy-demokratik qarashlari yoritiladi. Jadidlarning ilm-maʼrifat, taʼlim, soʻz va fikr erkinligi, inson qadr-qimmati, tenglik, adolat va qonun ustuvorligi haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid namoyandalarning jamiyat va davlat boshqaruviga oid fikrlari koʻrib chiqiladi. Jadidchilik harakatining Turkiston jamiyatining maʼrifiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tafakkuri rivojiga taʼsiri hamda uning bugungi huquqiy-demokratik qadriyatlar bilan mazmunan uygʻun jihatlari ochib beriladi.

ДВИЖЕНИЕ ДЖАДИДОВ: ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВЫХ И ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ И ИХ ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Фармон Хайитов

Преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук

Азиатского международного университета

e-mail: Farmon707icloud.com@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: джадидизм, право, демократия, права человека, верховенство закона, свобода, просвещение, равенство, Туркестан, гражданское общество.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возникновение движения джадидизма, сформировавшегося на территории Туркестана в конце XIX – начале XX века, его основные цели и идеи, а также правовые и демократические взгляды джадидов. Анализируются взгляды джадидов на просвещение, образование, свободу слова и мысли, человеческое достоинство, равенство, справедливость и законность. Также рассматриваются взгляды таких представителей джадидизма, как Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлони, Абдурауф Фитрат и Мунавваркори Абдурашидханов, на общество и государственное управление. Раскрывается историческое значение джадидского движения в развитии просветительской, общественно-политической и правовой

мысли Туркестана, а также содержательная связь отдельных идей джадидов с современными правовыми и демократическими ценностями.

Kirish. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston hududlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va ma’rifatparvarlik harakatlaridan biri hisoblanadi. Dastlab Qrimda shakllangan ushbu harakat XIX asrning 90-yillaridan boshlab O’rta Osiyo hududlariga ham tarqala boshladi. Jadidchilikning asosiy maqsadlaridan biri ta’limni isloh qilish, aholining savodsizligini kamaytirish, milliy o’zlikni anglash, jamiyatdagi qoloq qarashlarni bartaraf etish, xalqni ilm-fanga, zamonaviy taraqqiyot va erkinlikka chorlashdan iborat edi.

Jadidchilik harakati namoyandalari dastlab o’zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik esa jadidlar deb ataganlar. “Jadid” so’zi arabcha bo’lib, “yangi” degan ma’noni anglatadi. O’sha davrning ilg’or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini anglab, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetganlar.

Turkistondagi jadidchilik harakati namoyandalari qatorida Samarqandda Mahmudxo’ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo’jayev, Farg’ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho’lpon, Is’hoqxon Ibrat, Xivada Boboxxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqa ma’rifatparvarlar bor edi. Ular Turkiston o’lkasidagi jadidchilik harakatining asoschilari va faol namoyandalari sifatida tarixda muhim o’rin egallaydi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi jadidchilik harakatining shakllanishi, uning huquqiy-demokratik g’oyalari va tarixiy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida jadidlarning inson huquqlari, ta’lim, so’z va fikr erkinligi, tenglik, adolat, qonuniy boshqaruv hamda jamiyatdagi faol fuqarolik pozitsiyasiga oid qarashlari o’rganiladi. Shuningdek, jadid namoyandalarining jamiyat va davlat boshqaruvi haqidagi fikrlari hamda ushbu qarashlarning bugungi huquqiy-demokratik qadriyatlar bilan mazmunan bog’liq jihatlari ko’rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jadidchilik harakati tarixi, uning ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda namoyandalarining qarashlari ko’plab tarixiy va ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Jadidlar merosini o’rganishda ularning asarlari, publitsistik maqolalari, matbuot faoliyati va siyosiy qarashlari muhim manba hisoblanadi. Xususan, Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi

namoyandalarning asarlarida ta'lim, ma'rifat, jamiyat taraqqiyoti, axloq, davlat boshqaruvi va milliy taraqqiyot masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Jadidchilik tarixini o'rganishda O'zbekiston va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlarda jadidchilik harakatining shakllanish shart-sharoitlari, yangi usul maktablarining tashkil etilishi, jadid matbuoti, milliy ong va siyosiy tafakkurning rivojlanishi hamda 1917-yildan keyingi siyosiy jarayonlardagi ishtiroki turli jihatlardan tahlil qilingan.

Mazkur maqolada tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-huquqiy metod orqali jadidlarning qarashlari o'z davrining ijtimoiy-siyosiy sharoiti bilan bog'liq holda o'rganildi. Qiyosiy-huquqiy metod yordamida jadidlarning inson huquqlari, tenglik, erkinlik, adolat va qonuniy boshqaruv haqidagi qarashlari bugungi huquqiy-demokratik qadriyatlar bilan qiyoslandi. Tizimli tahlil asosida esa jadidlarning ma'rifiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy qarashlari o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi.

Tadqiqotning manba bazasini jadid namoyandalarning asarlari, publitsistik materiallari, jadid matbuotiga oid ma'lumotlar, tarixiy tadqiqotlar hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan zamonaviy huquqiy-demokratik tamoyillar tashkil etadi.

Natijalar. Jadidlarning huquqiy-demokratik qarashlari

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadidlarning huquqiy-demokratik qarashlarida, avvalo, inson va uning huquqlari masalasi muhim ahamiyat kasb etgan. Ular insonning bilim olish, erkin fikrlash, o'z fikrini ifodalash va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishi kerakligini ilgari surganlar. Ta'limni esa insonning dunyoqarashini kengaytiruvchi va uning jamiyatdagi mavqeini oshiruvchi asosiy vosita sifatida ko'rganlar.

Jadidlar so'z va fikr erkinligiga ham katta ahamiyat berganlar. Ularning gazeta va jurnallar tashkil etishi, ijtimoiy-siyosiy masalalarni matbuot orqali muhokama qilishi xalqning siyosiy ongini shakllantirishga xizmat qilgan. Jadid matbuoti orqali jamiyatdagi muammolar, boshqaruv masalalari, ta'lim, iqtisodiyot, madaniyat va aholining huquqiy holati haqida fikrlar bildirilgan.

Tenglik va adolat g'oyalari ham jadidlarning qarashlarida muhim o'rin tutgan. Ular jamiyat taraqqiyoti uchun insonlarning millati, ijtimoiy mavqei yoki boshqa farqlaridan qat'i nazar, ta'lim va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lishini zarur deb hisoblaganlar. Ayniqsa, ayollar ta'limi masalasiga e'tibor qaratilishi o'sha davr uchun muhim ijtimoiy yangiliklardan biri edi.

Jadidlar davlat boshqaruvi masalasida ham yangicha qarashlarni ilgari surganlar. Ularning fikricha, davlat boshqaruvi xalq manfaatlariga xizmat qilishi, jamiyat hayotida adolat va tartib ta'minlanishi lozim. Davlatning rivojlanishi uchun zamonaviy boshqaruv tizimi, ma'rifatli jamiyat

va qonuniylik muhim ekanligi ta'kidlangan. Shu jihatdan jadidlarning huquqiy-demokratik qarashlari o'z davri uchun ilg'or ijtimoiy-siyosiy fikr namunasi bo'lgan.

Jadidlar jamiyatni faqat kuch ishlatish yoki majburlash orqali emas, balki ta'lim, ma'rifat, huquqiy ong va siyosiy faollik orqali rivojlantirishga intilganlar. Bu esa ma'rifatni jamiyatni isloh qilishning asosiy vositasi sifatida ko'rganliklarini ko'rsatadi.

Jadid namoyandalarining qarashlari

Turkiston jadidlarini birlashtirishda "O'rta Osiyo jadidlarining otasi" sifatida e'tirof etilgan Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmati katta bo'lgan. U 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi va muftiy darajasiga ko'tarilgan. Behbudi O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschilaridan va yo'l boshchilaridan biri edi. U o'z maqolalari va publitsistik faoliyati orqali jamiyatdagi muammolarni ko'tarib chiqqan hamda xalqni siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga befarq bo'lmaslikka chaqirgan. Uning qarashlarida davlat va jamiyat taraqqiyoti xalqning bilimli va ongli bo'lishi bilan chambarchas bog'liq edi.

Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiya masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, jamiyatning kelajagi yosh avlodning bilimli, ma'rifatli va axloqan yetuk bo'lishiga bog'liq. Avloniy ta'limni nafaqat bilim berish vositasi, balki insonni jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglashga o'rgatuvchi muhim omil sifatida ko'rgan. Uning asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, adolat, axloq va ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalar keng yoritilgan.

Abdurauf Fitrat jadidchilik harakatining siyosiy va ijtimoiy fikr rivojiga katta hissa qo'shgan vakillaridan biridir. Fitrat o'z asarlarida davlat boshqaruvi, jamiyat taraqqiyoti, milliy mustaqillik, ta'lim va siyosiy islohotlar masalalariga murojaat qilgan. U jamiyat taraqqiyoti uchun eskicha boshqaruv shakllarini isloh qilish, zamonaviy bilim va siyosiy tafakkurni rivojlantirish zarurligini ilgari surgan. Uning qarashlarida xalqning siyosiy faolligi va milliy manfaatlarini anglash masalalari alohida ahamiyatga ega.

Munavvarqori Abdurashidxonov ham jadidchilik harakatining muhim vakillaridan bo'lib, asosan ta'lim va ma'rifat sohasidagi faoliyati bilan tanilgan. U yangi usul maktablarini rivojlantirish, zamonaviy fanlarni o'qitish va yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga katta e'tibor bergan. Munavvarqorining faoliyati orqali ta'limni jamiyatni isloh qilish va milliy ongning shakllantirish vositasi sifatida ko'rish mumkin.

Umuman olganda, jadid namoyandalarining qarashlari bir-birini to'ldirib, yagona maqsad — jamiyatni ma'rifatli, taraqqiyparvar va siyosiy jihatdan faol qilish g'oyasi atrofida birlashgan. Ularning faoliyati natijasida Turkiston jamiyatida ta'lim, matbuot, madaniyat va siyosiy fikr rivojiga katta turtki berildi.

Ta'lim, ayollar masalasi, matbuot va madaniyat

Jadidlarning qarashlarida jamiyat taraqqiyoti bilan insonning huquq va erkinliklari o'rtasidagi bog'liqlik ham muhim o'rin egallagan. Ularning fikricha, xalqning savodsizligi va siyosiy befarqligi jamiyat taraqqiyotini sekinlashtiradi. Shuning uchun insonni bilimli, ongli va faol qilish orqali jamiyatni ham rivojlantirish mumkin edi. Bu jihatdan jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati huquqiy ongning shakllanishiga ham xizmat qilgan. Jadidlar faoliyatining tarixiy ahamiyatini ayollar masalasiga bo'lgan munosabatida ham ko'rish mumkin. Ular jamiyat taraqqiyoti uchun ayollarning ham bilimli bo'lishi zarurligini ilgari surganlar. Ayollar ta'limi masalasining ko'tarilishi o'sha davr sharoitida muhim ijtimoiy fikrlardan biri edi. Ta'lim olish imkoniyatining kengayishi jamiyatning turli qatlamlari rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin edi.

Jadidlarning teatr va adabiyot sohasidagi faoliyati ham katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan. Sahna asarlari va badiiy asarlar orqali jamiyatdagi jaholat, savodsizlik, adolatsizlik, ijtimoiy muammolar va eskicha qarashlar tanqid qilindi. Shu bilan birga, ilm olish, vatanparvarlik, insonparvarlik va jamiyatni isloh qilish kabi g'oyalar targ'ib etildi. Natijada adabiyot va teatr nafaqat madaniy, balki ijtimoiy-ma'rifiy vositaga ham aylandi.

Jadidlarning siyosiy qarashlari va Turkiston Muxtoriyati

XX asr boshlaridagi siyosiy jarayonlarda jadidlarning faol ishtiroki ularning tarixiy rolini yanada kuchaytirdi. Ayniqsa, 1917-yildan keyingi davrda Turkistonning kelajagi, boshqaruv shakli va mahalliy aholining siyosiy huquqlari bilan bog'liq masalalar dolzarb bo'ldi. Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi mintaqadagi siyosiy o'zini o'zi boshqarish g'oyalarining muhim tarixiy ko'rinishlaridan biri bo'ldi. Bu jarayon jadidlarning jamiyat va davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari amaliy siyosiy jarayonlar bilan ham bog'langanini ko'rsatadi.

Jadidchilik harakatining tarixiy ahamiyati shundaki, u Turkiston jamiyatida "jamiyat qanday bo'lishi kerak?", "davlat xalq uchun qanday xizmat qilishi kerak?", "inson qanday huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak?" kabi muhim savollarni kun tartibiga olib chiqdi. Bu savollar keyingi davrlardagi ijtimoiy va siyosiy tafakkur rivojida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari jadidlarning qarashlari o'z davrining ijtimoiy-siyosiy sharoiti bilan chambarchas bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. Jadidlar zamonaviy huquqiy-demokratik davlat konsepsiyasini bugungi shaklda yaratmagan bo'lsalar-da, ularning ta'lim, erkin fikr, inson qadr-qimmat, tenglik, adolat va xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi boshqaruv haqidagi qarashlari keyingi huquqiy-siyosiy tafakkur rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etgan.

Shu bilan birga, jadidlarning qarashlarini bugungi huquqiy tushunchalar bilan aynan bir xil deb baholash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki jadidlar yashagan davr bilan bugungi kun o'rtasida katta

tarixiy va siyosiy farq bor. Biroq ularning ilgari surgan ayrim g'oyalari bugungi huquqiy-demokratik qadriyatlar bilan mazmunan uyg'un jihatlarga ega. Ayniqsa, inson qadr-qimmati, ta'lim, erkin fikr, tenglik, adolat, xalq manfaatlar va qonuniy boshqaruv haqidagi qarashlarda bunday bog'liqlikni ko'rish mumkin. Avvalo, jadidlarning inson qadr-qimmatiga e'tiborini bugungi inson huquqlari tushunchasi bilan bog'lash mumkin. Jadidlar jamiyat taraqqiyotining markazida ma'rifatli, erkin fikrleydigan va ongli inson turishi kerakligini ta'kidlaganlar. Bugungi huquqiy davlat konsepsiyasida ham inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi hamda barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi mustahkamlangan.

Jadidlarning ta'lim va ma'rifatga bo'lgan e'tibori ham bugungi huquqiy qadriyatlar bilan bog'liq. Ular xalqning kelajagini ta'limli va bilimli avlod bilan bog'laganlar. Bugungi kunda ham ta'lim insonning shaxs sifatida rivojlanishi va jamiyatda faol ishtirok etishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Jadidlar nazarida maktab faqat bilim beradigan muassasa emas, balki insonning dunyoqarashini shakllantiradigan va uni jamiyat hayotiga tayyorlaydigan maskan bo'lgan.

So'z va fikr erkinligi masalasida ham jadidlar faoliyatining bugungi huquqiy qadriyatlar bilan o'xshash jihatlari mavjud. Jadidlarning gazeta va jurnallar tashkil etishi, ijtimoiy muammolar haqida maqolalar yozishi va jamiyatdagi kamchiliklarni muhokama qilishi jamoatchilik fikrini shakllantirishga xizmat qilgan. Hozirgi demokratik jamiyatda esa fikr va so'z erkinligi fuqarolarning asosiy huquqlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Jadidlarning tenglik va adolat haqidagi qarashlari ham zamonaviy huquqiy davlat tamoyillari bilan bog'lanadi. Bugungi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi belgilangan. Fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi yoki ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar teng huquq va erkinliklarga ega ekanligi mustahkamlangan. Jadidlarning ayollar ta'limiga e'tibor qaratgani ham zamonaviy tenglik tamoyili bilan mazmunan bog'liq. Jadidlar jamiyat taraqqiyoti uchun faqat erkaklarning emas, balki ayollarning ham bilimli bo'lishi zarurligini tushunganlar. Jadidlarning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi davlat tushunchasi bilan ham bog'lanadi. Ular davlat boshqaruvida adolat, tartib va xalq manfaatlar ta'minlanishi kerakligini ilgari surganlar. Hozirgi huquqiy davlat tamoyillarida ham davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati qonun bilan tartibga solinishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinishi muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, jadidlarning huquqiy-demokratik qarashlari bevosita zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasining aynan o'zi sifatida emas, balki Turkiston hududida inson, jamiyat, davlat va huquq munosabatlariga oid ilg'or ijtimoiy-siyosiy tafakkurning shakllanish bosqichi sifatida baholanishi kerak. Ularning tarixiy ahamiyati, avvalo, jamiyatni ma'rifat orqali yangilash, insonning bilim va ongini rivojlantirish, siyosiy faollikni oshirish hamda adolatli boshqaruv g'oyalarini ilgari surganliklarida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkiston tarixida xalqning ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tafakkurini rivojlantirishda muhim o'rin tutgan tarixiy harakatlardan biridir. Jadidlar o'z davrining murakkab sharoitlariga qaramay, jamiyatni yangilash, xalqni ilm-ma'rifatga chorlash, ta'lim tizimini takomillashtirish va insonning jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish yo'lida katta sa'y-harakatlarni amalga oshirdilar. Jadidlar merosini o'rganish Turkiston hududida huquqiy va demokratik tafakkurning tarixiy shakllanish jarayonlarini anglash, milliy huquqiy ongning rivojlanish bosqichlarini baholash hamda zamonaviy huquqiy-demokratik qadriyatlarning tarixiy ildizlarini chuqurroq tushunish uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi.
2. Fitrat, A. (2000). Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat.
3. Qosimov, B. (1999). Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma'naviyat.
4. Qosimov, B. (2004). Jadidchilik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
5. Rajabov, Q. (2011). Turkiston Muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik uchun kurash. – Toshkent.
6. Sodiqov, H., Jo'rayev, N. va boshqalar. (2000). O'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
8. O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'ZA). Jadidchilik harakati va jadidlar merosiga oid materiallar. – Elektron manba. O'ZA rasmiy sayti